




Berilgan so'zlarni ranglari bilan ko'rsatib ayting.

Sariq, yashil, ko'k, qizil,
oq, qora, jigarrang, moviy,
pushti, kulrang.



“Dengiz suvi nega sho'r?” nomli
xitoy xalq ertagini diqqat bilan
tinglang.

1





1. Ertak nima haqida ekan?
2. Nima deb o'ylaysiz, bu ertak nima uchun mazkur bo'limga kiritilgan?
3. Yigit kimlarga yordam berdi?
4. Nima uchun yigit qimmatbaho toshlarga e'tibor bermadi?
5. Aka sehrli toshga nima sababdan qiziqib qoldi?
6. Ertakdan qanday xulosa chiqardingiz?



Tuzning ikki yuzi

Yer yuzida dengiz (dengiz tuzi) va minerallar (tosh tuzi)dan olinadigan juda katta tuz zaxiralari mavjud. Oshxona tuzi hayotiy ahamiyatga ega ekanligi ilmiy jihatdan isbotlangan. Hatto tadqiqotlarsiz ham, odamlar boshidanoq tuz juda qimmatli, foydali va yordamchi modda ekanligini tushunishgan. Boshqa tomondan esa, haddan tashqari sho'rlanish tuproq unumdorligini pasayishiga olib keladi. Bu o'simlik ildizlari tuproqdan mineral moddalarni yetarlicha olishiga to'sqinlik qiladi.



**Ertakdagi aka-ukalarga ta'rif bering.
Ertak voqealarining ketma-ketligini aniqlang.**

A	Ana shunda ham, tosh tuz chiqarishdan to'xtamabdi. Aytishlaricha, hozirda ham u to'xtamaganmish.
B	Eh, onajon, akam shaharda katta amaldor bo'lib ketgan.
D	Sehrli tosh haqidagi xabar butun mamlakatga yoyilibdi. Bu xabar akaning ham qulog'iga yetib kelibdi.
E	Ulardan kichigi onasi bilan qishloqda, kattasi esa shaharda yashar ekan.
F	Xizmatkor xo'jayinining aytganini qilib, ukani oshxonaga boshlab kiribdi.
G	Yigit yon-veriga qarab, o'simlik ildizlarini terayotgan kampirga ko'zi tushibdi.
H	Kampir yigitga sehrli toshdan qanday foydalanishni tushuntirib beribdi.
I	Yetti qiz makon tutgan joyni topib, ularga suyakni berib, orqaga qaytmoqchi bo'libdi.
J	Toshni olgach, onasining javobini kutmasdanoq katta kemada yo'lga chiqibdi.
K	"Tuz ber, tuz ber, tuz ber, yana, yana, yana", – deb qichqiribdi. Shu onda tuz qor uyumi kabi kemani to'ldira boshlabdi.



Ertakni qismlarga bo'ling. Har bir qism uchun sarlavha qo'ying.



Ertak mazmuniga mos maqollarni o'qing.

- *Bekorchidan el bezor,
So'zidan ko'ngil ozar.*
- *Gap bilan shoshma,
Ish bilan shosh.*
- *Yomon odam to'ymas,
Yomonligini qo'ymas.*
- *Mehr bilmas qarindoshdan,
Mehr bilgan yot yaxshi.*
- *Mehnat, mehnatning tagi rohat.*
- *Mehri borning sehri bor.*



“Dengiz suvi nega sho'r?” ertagini qayta so'zlab bering. Tabiatda ham dengiz suvi nega sho'r bo'lishi haqida ma'lumot topib yozing.